

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI MA'NAVIY RIVOJLANISHIDA
AJDODLARIMIZNING IJTIMOY ME'ROSIDAN FOYDALANISH**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

o'qituvchisi Qulmurodova.S.S.

Annatatsiya: Ushbu maqolada o'sib kelayotgan yosh avlodda yuksak manaviyati keng dunyo qarashini tafakkurni shakillantirish, atrof muhitga ogohlik va sergaklik ruhida tarbiyalash davr talabiga aylanib borayotganligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Tarbiya, ta'lim, xulq atvor, maqsad, tarixiy, tajriba, sifat, bilim, malaka, yosh avlod, shaxs, ko'nikma.

Annatiation: High world's vicinity of the young Avlan in this article tells us that educating the thinking of thinking, environmental awareness, and vigilance.

Keywords: upbringing, education, behavior, goal, historical, experience, quality, knowledge, a qualifications, a younger generation, skills.

Аннатиация: окрестности в высоком мире молодого Авлан в этой статье говорит нам, что обучение мышления мышления, экологической осведомленности и бдительности.

Ключевые слова: воспитание, образование, поведение, цель, исторический, опыт, качество, знания, квалификация, молодое поколение, навыки.

Tarbiya-muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, Tarbiya bu tarbiya beruvchining tarbiyalanuvchi ongiga o'zi yoqtirgan sifatlarni singdirish jarayonidir, shuning barabarida tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Tarbiya xususida so'z borar ekan avvalo Abdulla Avloniyning davrlar osha o'z kuchini yo'qotmagan hayot haqiqatlarga to'la bo'lgan shunday

durdona so'zlari mavjud: «Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot-yo xalokat, yo saodat-yo falokat masalasidir». Tarbiyaning maqsadi-har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish. Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda ta'lim oluvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi. Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi hamda tarbiya jarayonida bir qancha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi. Tarbiya jarayonida bu borada boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan tarbiyachilar bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirishi g'oyat muhimdir. Tarbiya -shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisidir. Ushbu jarayonda davlatimiz rahbari Sh. M. Mirziyoyev "Agar mendan sizni nima qiynaydi deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman" degan mazmundor so'zlari bugungi kunda har o'sib ulg'ayayotgan yoshlarimizning ertangi kuniga qayg'urishning muhim ko'rinishi ekanligi ushbu so'zlar orqali yaqqol o'z ifodasini topgan.

Shuni ta'kidlashimiz joizki tarbiyaning maqsadi-ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti uning rivojlanishi yo'nalishi ijtimoiy munosabatlari mazmunidan kelib chiqib belgilanadi Bugungi kunda Ozbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni tarbiyalash voyaga yetkazishdan iboratdir. Tarbiya jarayoni yosh avlodni bir maqsad yo'lida bir tomonlama voyaga yetkazish unda ijtimoiy ong va xulq atvorni tarkib toptirishga yunaltirilgan faoliyat jarayoni hisoblanadi. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining yosh xususiyatlarini inobatga olish muhim masala hisoblanadi. Masalan: mas'uliyat tuyg'usini

boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakillantirish juda muhim hisoblanadi. Ta'lim tarbiya jarayonining izchil, uzluksiz, tizimli hamda intilishi aniq ijtimoiy maqsad asosida tashkil etilishi mazkur jarayonda fanlar a'ro aloqadorlik shuningdek dunyo qarashini shakillantirishida samaralidir. Barcha mavjud omillarning borligiga tayangan holda ish yuritish ko'zlangan maqsadning kafolatidir.

O'sib kelayotgan yosh avlodda yuksak manaviyat keng dunyo qarash tafakkurni shakillantirish, atrof muhitga ogohlik va sergaklik ruhida tarbiyalash davr talabiga aylanib bormoqda. Sababi fikrlash tahlil qilish idrok qilish tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo'lmagan yosh avlod faqat topshiriqni bajaruvchi manqurtga aylanishi ehtimoli mavjuddir. Shunga binoan kelajak yosh avlod manashunday manqurtga aylanmasligi uchun bor pedagogik salohiyatimizni mahoratimizni ishga solishimiz lozim hisoblanadi. Ular inson uchun bo'lgan erkin haq huquq va qadriyatlarning qadriga yetmayotganligidir. Har bir ma'naviyatli ongli insonda vatanidan faxrlanish tuyg'usi bo'lishi, unga munosib bo'lishga harakat qilishi lozim. Biz manashunday vatanimizdan faxirlanayabmizmi demak vatanimiz ham bizdan faxirlanishi kerak degan g'oyani ilgari surishimiz zarur. Shaxsni tarbiyasi dolzarb ijtimoiy va pedagogik muammo hisoblanadi. Shunga asosan o'sib rivojlanib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablari asosida tarbiyalashda ta'lim sub'ektlari o'rtasidagi uzluksizlikni hamda fan predmetlari orasidagi integratsiyani taminlash zarur hisoblanadi. Inson o'z o'zidan ezgulikni yaratish, manaviy yuksalish uchun mas'ul, ammo bu bilan birga insonning yuksalishida ta'limning roli nihoyatda katta ekanligini inkor etib bo'lmaydi. Inson tarbiyasi masalasi, ularni nuqsonlardan qutqarish ajdodlarimizning azaliy masalasi bo'lib kelgan. Shaxs millat insoniyat manaviyatining holati va darajasi jamiyat taraqqiyotiga turlicha ta'sir etishi mumkinligi qadim zamonlardan buyon ma'lum. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotidagi tushkunliklar, turg'unlik holatlari, iqtisodiy, siyosiy omillardagina emas, balki kishilarning ongi e'tiqodi dunyoqarashi axloqiy kamolati darajasidan ham izlash kerak.

Ota-ona zimmasidagi burch farzandga faqat chiroyli odob-axloq

o'rgatishdan iborat emas, balki uni turli xil mafkura va g'ayri insoniy yot g'oyalardan saqlash ham ota-onaning burchlaridan biri hisoblanadi. Chunki e'tiqodi sog'lom, mafkurasi to'g'ri bo'lgan farzand ota-onaga mehribon, el-yurtiga sadoqatli fidoiy inson bo'lib voyaga yetadi, bunday mas'uliyatli vazifa nafaqat ota onaga atrof muhit tengdoshlar va ta'limning o'rni katta hisoblanadi. Farzandini jismonan sog'lom, baquvvat qilib voyaga yetkazmog'i ham ota-onaning zimmasidagi burchlardan biridir. Farzand tarbiyasi bilan uning go'daklik davridanoq, hatto dunyo yuzini ko'rmasidan avval shug'ullanish lozim. Xalqimiz qadimdan tarbiyani ko'pning ishi deb bilganlar, shunga asoslanib "Bir bolaga yetti mahalla ota ona", degan hikmatli so'zining zamirida olam-olam ma'no borligi, Bedil "Me'mor dastlabki g'ishtni to'g'ri qo'ymasa, binoning boshi yulduzlarga yetsa ham, u qiyshiq bo'lib qolaveradi" degan edi. Demak, jamiyatda inson o'z o'rnini topishida moddiy boyliklari emas, balki yuksak ma'naviy qiyofasi ahamiyat kasb etadi. Ajdodlarni avlodlarga, tarixni bugunga, bugunni kelajakka bog'lovchi ko'priq sifatida namoyon bo'luvchi ma'naviyat ota-bobolarimizdan meros bizga. Har qanday tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda o'quvchilarning gigiyenik qoidalariga asosan tashkil etishda yaratilgan shart-sharoitlar muhim ro'l o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. M. Mirziyoyev " Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi " Toshkent: O'zbekiston nashriyoti 2019 B' 254
2. Rahimov Sh. Barkamol avlod tarbiyasi millat tayanchi. "O'qituvchi" nashriyoti. 2020. – 321
3. G.B.Saidnazarova "Tarbiya fanini o'qitish metodikasi"–Tarix (Islom tarixi va manbashunosligi) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. Kamolot nashriyoti. Buxoro 2024.